



DAVLAT SEKTORIDA MOLIVAVIY NAZORAT: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

PhD, dotsent **Temirov Muxammadali Xamidovich**
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy moliyaviy boshqaruv va nazorat kontekstida davlat sektori ko'proq e'tibor qaratiladigan obyektga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada davlat va jamoat tashkilotlarida moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirishning bugungi holati va istiqboldagi yo'nalishlari har tomonlama tahlil qilingan bo'lib, davlat resurslaridan samarali foydalanish va strategik maqsadlarga erishish uchun nazorat jarayonlarini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Qolaversa, maqolada davlat sektorida moliyaviy nazorat oldida turgan muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy xatoliklar, nazorat tadbirlari, noqonuniy xarajatlar, mablag'larni o'zlashtirish.

ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

PhD, доцент **Темиров Мухаммадали Хамидович**
Международный университет Кимё в г. Ташкенте

Аннотация. В условиях современного финансового управления и контроля государственный сектор становится объектом все большего внимания. В данной статье всесторонне анализируется современное состояние и перспективные направления развития системы финансового контроля в государственных и общественных организациях, особое внимание уделено оптимизации процессов контроля для эффективного использования государственных ресурсов и достижения стратегических целей. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкивается финансовый контроль в государственном секторе.

Ключевые слова: государственный финансовый контроль, финансовые ошибки, меры контроля, незаконные расходы, хищение денежных средств.

FINANCIAL CONTROL IN THE PUBLIC SECTOR: ISSUES AND DEVELOPMENT PROSPECTS

PhD, associate professor **Temirov Mukhammadali Khamidovich**
Kimyo international university in Tashkent

Abstract. In the context of modern financial management and control, the public sector is becoming the object of increasing attention. This article comprehensively analyzes the current state and promising directions for the development of the financial control system in state and public organizations, with special attention paid to optimizing control processes for the efficient use of public resources and achieving strategic goals. In addition, the article examines the problems faced by financial control in the public sector.

Keywords: state financial control, financial errors, control measures, illegal expenses, theft of funds.

Kirish.

Davlat moliyasi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. U ijtimoiy dasturlar, infratuzilma loyihalari va boshqa strategik muhim tashabbuslarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti xarajatlarining ko'payishi ko'pincha jamiyat ehtiyojlarining ortib borishi, shuningdek, turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ta'sir ko'rsatish zarurati bilan bog'liq sanaladi. Xarajatlarning ko'payishi sharoitida ajratilgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu moliyaviy nazoratning ahamiyatini yanada oshiradi. Moliyaviy oqimlarni nazorat qilish va byudjet operatsiyalari monitoringi davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, mas'uliyat va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan vositalar xisoblanadi. Chunki, moliyaviy nazorat byudjet mablag'larining samarali va milliy ustuvorliklarga muvofiq taqsimlanishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu mablag'lardan noto'g'ri foydalanish, korrupsiya va suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, moliyaviy nazorat potensial xavflarni aniqlash va ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqishda ham samarali vositasidir.

Murakkab iqtisodiy dinamika va ortib borayotgan ijtimoiy majburiyatlar sharoitida moliyaviy nazorat davlat moliyasini samarali boshqarishning ajralmas qismiga aylanadi. Bu nazorat nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholi turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish kabi strategik maqsadlarga erishishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Adams (1995), Arens (2000), Visser (2015), Konyng (2007) va Mozer (2015) kabi xorijiy mualliflarning fundamental ishlari davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va faoliyati nazariyasi va amaliyotini ochib berishga bag'ishlangan. Shuningdek, Don A. Moore, Philip E. Tetlock, Lloyd Tanlu va Maks H. Bazerman davlat auditorlarining mustaqilligi va halolligini qayd etadilar; Cris Shore moliyaviy nazorat madaniyati va davlat moliyaviy nazoratining biznesga ta'siri haqida gapiradi; Age Johnsen, Pentti Meklin, Lasse Oulasvirta, Jarmo Vakkuri Finlyandiya va Norvegiya misolida davlat moliyaviy nazorati davlat sektori samaradorligini oshirishda asosiy vosita ekanligini isbotlashga uringan; Maria Gustavson empirik tadqiqotlar orqali davlat auditing davlat sektori faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishini va davlat moliyaviy nazoratining xar xil turlarini joriy etish zaruratini aniqlagan (Kuryanov, 2019).

Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy nazoratni aniqlashga belgilangan normalar va qoidalarni hisobga olgan holda moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar prizmasi orqali ko'rib chiqishga asoslangan turli xil yondashuvlar keltirilgan (Anisiforov, 2020).

Moliyaviy nazorat turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Subyektiga ko'ra moliyaviy nazorat davlat va nodavlat turlarga bo'linadi (Xrebtova, 2021; Grigoryev va Samsonov, 2021). Moliyaviy nazoratning har xil turlari uchun umumiy bo'lgan narsa qo'llaniladigan usullar, amalga oshirish yo'llari va shakllari sanaladi. Ularning farqi moliyaviy resurslarning (byudjet yoki xususiy fondlar) tabiati bilan bog'liq (Lukashov, 2023).

Olimlarning fikricha davlat moliyaviy nazoratining evolyutsiyasi ko'p jihatdan mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi (Lukashov, 2022). Davlat moliyaviy nazorati - bu byudjet mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va mexanizmlar tizimidir. Ushbu turdagi nazoratning asosiy maqsadi davlat moliyasini boshqarishda samaradorlik, mas'uliyat va shaffoflikni ta'minlashdan iborat.

Shunday qilib, davlat moliyasining ahamiyati, davlat byudjeti xarajatlarining ortishi va moliyaviy nazoratga bo'lgan ehtiyoj bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligining asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola boshqaruvning nazorat funksiyasining mohiyati va byudjet munosabatlarida nazoratni amalga oshirish haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiya dan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat sektori iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarga turli xizmatlar taqdim etishga mo'ljallangan. 2008 yilgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va yaqinda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq inqirozlar davrida hukumatlar ijtimoiy tizim, infratuzilma va sog'liqni saqlash tizimlarini qo'llab-quvvatlash uchun fiskal choralardan tobora ko'proq foydalanadi. Bundan tashqari, ular daromadlarni qo'llab-quvvatlash va ishsizlik nafaqasi kabi vositalardan foydalangan holda korxonalar va fuqarolarga bevosita moliyaviy yordam ko'rsatadilar. Inqiroz davrida faqat davlat yetarli miqdorda zarur yordam ko'rsatishga qodir sanaladi.

Zamonaviy sharoitda samarali davlat boshqaruvi global muammolarning o'z vaqtida monitoringini va ularga ta'sir qilishning ilg'or usullarini shakllantirishni ta'minlaydi (Artyuxin, 2020). Samarali boshqaruv tizimini esa nazoratsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki nazorat boshqaruvning asosiy elementlaridan biri sanaladi. Davlat nazorati tizimida davlat moliyaviy nazorati alohida o'rin egallaydi. Bu esa davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish va takomillashtirish muammolariga yanada ko'proq e'tibor qaratilishini tushuntiradi (Miedviedkova, 2016).

Xar qanday nazorat tizimi o'z ichiga nazorat obyektlari va subyektlarini, shuningdek, nazorat tizimi maqsadlar va standartlarga muvofiqlikni ta'minlash, xatolar va suiiste'mollarning oldini olish, tashkilot yoki tizimda samarali va mas'uliyatli boshqaruvni ta'minlash uchun mo'ljallangan usullar, jarayonlar va vositalarni o'z ichiga oladi. Nazorat tizimi subyektlari - nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar yoki maxsus organlarni va obyektlar - maqsadlar va standartlarga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, xatolar va suiiste'mollarning oldini olish uchun nazorat qilinadigan jarayonlar, operatsiyalar va resurslarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazorat obyektlari - bu monitoring qilinadigan, tekshiriladigan va tartibga solinadigan turli xil moliyaviy jarayonlar va vositalardir. Davlat byudjeti moliyaviy nazoratning asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetining ijrosini nazorat qilish uning samarali ijro etilishini va belgilangan moliyaviy norma va qoidalarga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan. O'z o'rnida davlat byudjeti sohasidagi moliyaviy nazorat obyektlari quyidagilardan iborat:

- Daromadlar va soliqlar: soliqlar va boshqa daromadlarning byudjetga tushumini, shuningdek soliq tushumlarini undirish samaradorligini nazorat qilish.

- Xarajatlar: Byudjet xarajatlarini monitoring qilish, ularni davlatning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlash.


- Qarz: davlat qarzi darajasini monitoring qilish, uni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.

- Byudjet ijrosi: byudjetni amalda bajarilishini nazorat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish.

- Mablag'lardan foydalanish samaradorligi: Davlat xarajatlari samaradorligini baholash va byudjet mablag'laridan foydalanishni optimallashtirish chora-tadbirlari.

Davlat byudjeti daromadlari mamlakat boshqaruvi faoliyatini moddiy jihatdan ta'minlash va iqtisodiyotni tartibga solishda asosiy vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Byudjet daromadi pul mablag'i jamg'armalarini shakllantirish jarayonida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib, hokimiyat organlari boshqaruviga kelib tushadi (Sazonov, 2010). Davlat byudjeti ustidan nazorat moliyaviy intizom, moliyaviy resurslardan foydalanishda shaffoflik va mas'uliyatni ta'minlashga yordam beradi.

Davlat byudjetining daromadlari xususida so'z yuritadigan bo'lsak, bu o'rinda soliqlar muhim ahamiyat kasb etishini alohida qayd etish joiz. Chunki soliqlar davlat byudjeti daromadining katta qismini tashkil etadi. O'zbekistonda 2022 yilda Davlat byudjeti daromadlari 201893,8 mlrd so'mni tashkil qilib, prognozga nisbatan 1525,0 mlrd. so'mga ortiqcha bajarildi. Bu holat so'nggi 2017-2022 yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq davlat byudjeti daromadlarida o'sish tendensiyasi saqlanib qolyatganligidan dalolat beradi. 2021 yilga nisbatan daromadlar 37064,2 mlrd. so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shundan soliq organlari tomonidan 148501,2 mlrd. so'm (73,6%), bojxona organlari tomonidan 46024,6 mlrd. so'm (22,8%) shakllantirilgan. Boshqa daromadlar esa 7337,9 mlrd. so'mni (3,6%) tashkil etgan (1-rasm).



1- rasm. 2018 – 2022 yillarda Davlat byudjeti daromadlar hajmini soliqlar kesimida o'sish tendensiyasi (mlrd.so'mda)

Davlat budjetining daromad qismida moliyaviy nazoratning o'rni davlat daromadlarini samarali yig'ish va boshqarishni ta'minlashdan iborat. Nazorat soliq tushumlarini monitoring qilish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish, soliq tizimining adolatliligi va shaffofligini ta'minlash, daromadlarni optimallashtirish va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu o'rinda qayd etish joizki, byudjet daromadlarini shakllantirish va uning ijrosi ustidan moliyaviy nazorat o'tkazilganda ayrim xato va kamchiliklar, shuningdek, qonun buzilishlariga yo'l qo'yilayotganligi bu sohada nazoratni takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda, undiriladigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni, shuningdek, davlat bojlari va boshqa to'lovlarni davlat byudjetiga hamda vakolatli organlarning maxsus hisobvarag'iga to'lash rejalarini tasdiqlash va mablag'larni taqsimlashda belgilangan me'yorlarga rioya qilinmagan hamda xatolarga yo'l qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2020 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti tashqi audit va baholashdan o'tkazilishi natijasida quyidagi holatlar aniqlandi.

Soliq turlari kesimida QQS bo'yicha belgilangan 20999,6 mlrd. so'm prognoz 20485,6 mlrd. so'm yoki 97,6 foizga bajarilib, 513,9 mlrd. so'mga bajarilmagan. Xususan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo inspeksiyasi 838,1 mlrd. so'm, Toshkent viloyati 62,7. mlrd so'mga, Toshkent shahar 63,9 mlrd. so'mga bajarilmagan. 2020 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i uchun belgilangan 774,2 mlrd. so'm prognoz 733,4 mlrd. so'mga yoki 94,7 foizga bajarilgan yoki belgilangan prognoz ko'rsatkichlari 40,8 mlrd. so'mga bajarilmagan⁴⁸.

2020 yilda 1414 ta byudjet tashkilotlari tomonidan 647,5 mlrd. so'm ishlar va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha daromadlar soliq hisobotlarida aks ettirilmagan. Shundan 118 ta O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlar 2020 yilda 97,3 mlrd so'm xizmatlar ko'rsatishdan daromad olingan bo'lib, ularning 9 tasi yoki 7,6 foizi onlayn nazorat kassa mashinalari bilan ta'minlangan xolos.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan subyektlar kesimida ma'lumotlar taqdim etilmaganligi natijasida, 2020 yilda byudjetga undirilishi lozim bo'lgan 427,4 mlrd so'm soliq tushumlari yo'qotilgan.

2021 yilda 190 ta davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar tomonidan 2021 yilda 668,1 mlrd so'm dividendlar Davlat byudjetiga to'lanmasdan qolgan. Bundan tashqari, Soliq kodeksining 345-moddasida soliq summasi (5 foiz) dividendlarni va foizlarni to'lash muddatidan kechiktirmay byudjetga to'lanishi belgilangan bo'lsada, davlat ulushi mavjud bo'lgan 691 ta yuridik shaxslar tomonidan 56,9 mlrd so'm ajratma to'lanmagan. Shuningdek, moliya vazirligi g'aznachiligi tomonidan 2021 yilda to'lovlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan ishlar (xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalarga asosan soliqlar hisoblanishi davlat soliq xizmati idoralari ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro solishtirilganda, 116 nafar yuridik shaxsdan 40,0 mlrd. so'mlik ishlar (xizmatlar) qabul qilinib, shundan soliq hisobotlarida 27,8 mlrd. so'm ko'rsatilmaganligi natijasida 1,1 mlrd. so'm aylanmadan olinadigan soliq, 2375 nafar yuridik shaxsdan qabul qilingan 8765,3 mlrd. so'mlik ishlarining (xizmatlar) 2979,9 mlrd. so'mi soliq hisobotlarida ko'rsatilmaganligi natijasida 443,7 mlrd. so'm qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasdan qolganligi kuzatilgan⁴⁹.

2022 yilda soliq va bojxona idoralari uchun belgilanadigan prognoz ko'rsatkichlari Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi" dasturiga to'liq kiritilmasligi oqibatida, prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishi hamda shu bilan bog'liq byudjet xarajatlarini amalga oshirishdagi nazorat tizimi avtomatlashtirilmagan.

Respublika bo'yicha 2022 yilda jami 93717 gektar yer maydonlarini ijaraga berish yuzasidan 421,9 ming ta shartnomalar imzolangan (asosan jismoniy shaxslarga ijaraga berilgan) bo'lib, ularning normativ qiymati 6109,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Biroq, 2022 yil uchun tuzilgan ijara shartnomalari bo'yicha 270,9 mlrd so'm ijara to'lovlari tegishli mahalliy byudjetlarga undirilmagan.

2022 yil uchun "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJlar bo'yicha foyda solig'i 22886,2 mlrd so'm prognoz qilingan edi, tushumlar esa 17393,7 mlrd so'mni, jumladan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ - 11799 mlrd so'm, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ - 5595 mlrd so'mni tashkil qilgan. Belgilangan prognoz ko'rsatkichi 5493 mlrd so'mga (24 foiz) bajarilmagan. Davlat ulushiga hisoblangan dividendlar bo'yicha 27031,9 mlrd so'm prognoz belgilangan bo'lsada, haqiqiy tushumlar 23090,5 mlrd so'mga teng bo'lgan va byudjetga ko'zda tutilgan 3941,4 mlrd so'm (14,6 foiz)

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2020 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti bo'yicha xulosasi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2021 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti bo'yicha xulosasi.

tushmagan⁵⁰.

Ko'rib turganimizdek, byudjet daromadlarini rejalashirish va ularni o'z vaqtida undirish masalalarida bir qator kamchiliklar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun davlat moliyaviy nazorati sohasida rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish, qolaversa, institusional asoslarni takomillashtirish, sohada zamonaviy axborot-komunikasiya texnologiyalaridan faol foydalanish va ularni yanada takomillashtirish muhim sanaladi. Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarning byudjet tizimlari byudjetlari o'rtasida daromadlar rejasini doimiy o'zgartirish vositasidan voz kechish hamda soliqlar stavkasini kamida uch yilga qat'iy lashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu mahalliy byudjetlar daromad qismini shakllantirish hamda ijro etish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi (Kilberg, 2013).

Davlat byudjetining xarajat qismiga keladigan bo'lsak, unga ijtimoiy dasturlar, mudofaa, infratuzilma loyihalari, davlat boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit va sog'liqni saqlash kabi turli sohalarda rejalashtirilgan barcha davlat xarajatlarini kiritishimiz mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlari bu byudjet moliyaviy kategoriyasining bir qismi hisoblanib, davlat tomonidan o'zining amalga oshirilishidan vazifa va funksiyalaridan kelib chiqadi. Bu xarajatlar, davlatning markazlashtirilgan pul jamg'armasidan turli sohalarga sarflash jarayonining iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi.

Davlat byudjeti xarajatlari byudjetdan mablag' oluvchilarning maqsadli pul fondlarini shakllantirishda namoyon bo'ladi va o'zida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. Davlat byudjetining asosiy vazifasi – davlatning fiskal siyosati mohiyati va yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi (Qurbonov va Bijanova, 2015). Ushbu fikrga qo'shilgan holda, davlat budjeti xarajatlari davlat tomonidan turli maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning umumiy hajmini ifodalaydi deb aytishimiz mumkin. Davlat byudjeti xarajatlari davlatning ustuvor vazifalari, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy ehtiyojlar va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. Umumiy xarajatlar sxemasi mamlakatlarda farq qilishi mumkin va muayyan davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ustuvorliklarini aks ettiradi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, davlat byudjetining xarajatlari kapital shuningdek, joriy xarajatlar shaklida shakllantiriladi. Davlat byudjetining kapital qurilish, investisiyalar va innovatsiyalar bilan bog'liq xarajatlari kapital xarajatlarni, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining faoliyat ko'rsatishi uchun sarflanadigan xarajatlar joriy xarajatlarni tashkil etadi. Shuningdek, Davlat byudjeti xarajatlari milliy iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi (Eshnazarov va Mansurov, 2015).

Kapital xarajatlar bu kelajakka poydevor, yangi korxonalar va ijtimoiy obyektlarning qurilishi, davlat mulkini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari yangi innovatsiya loyihalariga investisiyalardir (Zinovyeva, 2022).

Davlat byudjetining xarajatlarini Byudjet kodeksi tartibga soladi. Byudjet kodeksining 69-moddasi⁵¹ bilan Davlat byudjetining xarajatlari tarkibi belgilangan. Shuningdek, 70-modda O'zbekiston Respublikasi, respublika byudjeti, 71-modda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari, Toshkent byudjeti va 72-modda tuman va shaharlar byudjetlari xarajatlarini belgilaydi.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida 2017-2022-yillarda davlat byudjeti xarajatlarining sezilarli o'sishi kuzatildi. Ayniqsa, 2019 yilda sezilarli o'sish kuzatildi, bunda byudjet xarajatlari 2017-yilga nisbatan ikki baravardan ko'proq oshdi. Bu tendensiya 2022 yilda ham saqlanib qoldi hamda byudjet xarajatlari 2019 yilga nisbatan qariyb 2 barobar oshdi. Bu o'sishni jamiyat hayotining turli sohalarda va iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlar bilan izohlash mumkin. Ushbu yondashuv ijtimoiy dasturlar, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki qo'shimcha mablag' talab qiladigan boshqa sohalarga

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2022 yildagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti bo'yicha xulosasi.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 69-modda. <https://lex.uz/acts/2304138>.

strategik investitsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shu bilan birga, ushbu xarajatlarning samaradorligi va natijaviyligi masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Byudjet xarajatlarining bunday o'sishi belgilangan maqsadlarga qanchalik mos keladi, mamlakatning barqaror rivojlanishini hamda dolzarb muammolar yechimini ta'minlayaptimi, buni baholash muhim. Samarali moliyaviy nazorat va natijalar monitoringi xarajatlarning oshishi asosli va samarali ekanligini aniqlashga yordam beradi.




2- rasm. 2018 – 2022 yillarda Davlat byudjeti xarajatlarini o'sish dinamikasi (mlrd.so'mda)

Davlat byudjeti xarajatlari xususida keltirilgan statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak (2-rasm), unda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 2019 yil 2017 yilga nisbatan 236,0 foizga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2020 yilda esa 2019 yilga nisbatan 117,0 foizga o'sgan. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan shuningdek, iqtisodiyot xarajatlari ham yilma yil o'sib borgan. Shu bilan birga markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, 2019 yilda 2017 yilga nisbatan 218,0 foiz va 2020 yilda 267,3 foizga o'sib, 2022 yilda esa 2021 yilga nisbatan 93 foizga bajarilgan. Bu o'z navbatida xususiy investitsiyalarni kupayganidan darak beradi. Shu bilan birga davlat byudjeti xarajatlarini yildan yilga oshib borishi mamlakatda so'ngi yillarda olib borilayotgan islohatlar, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, shuningdek, iqtisodiyotni barqaror o'sishi bilan asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlillari ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, iqtisodiyot va investisiyalarga ustuvorlik berilganligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarda, xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamini qo'llab-quvvatlashda, investisiyalarga byudjetdan mablag' ajratish orqali aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash hamda boshqa sohalarni rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga byudjet mablag'laridan maqsadsiz va noqonuniy foydalanish xolatlari ham ortib borayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash bevosita davlat moliyasini boshqarish, shu jumladan davlat moliyaviy nazorati samaradorligiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining 2018-2022 yillardagi ijrosida byudjet mablag'larining qonuniy sarflanganligi va maqsadliliigi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarini vazirlik va idoralar kesimidagi tahlili quyidagilarni ko'rsatdi (3- rasm).




3- rasm. Moliyaviy xatoliklar aniqlangan nazorat obyektlari soni

3- rasmda keltirilgan ma'lumotlarda, 2021 yilda Sog'likni saqlash vazirligi tizimidagi, 2022 yilda Xalq ta'limi vazirligi va Madaniyat vazirligi tizimlaridagi tashkilotlarda moliyaviy xatolar sezilarli darajada oshganini ta'kidlash mumkin. Bu ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan sohalarda moliyaviy boshqaruvning o'ziga xos murakkabligi bilan bog'liq sanaladi.

Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan 2018-2022 yillarda o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda pul mablag'lari, moddiy boylik kamomadi va o'zlashtirishlar hamda noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar aniqlandi (4- rasm). 2018 yilda hisobot davri uchun nazorat tadbiri o'tkazilgan byudjet tashkilotlarining 4744 tasida 68,1 mlrd so'm, shundan, 15,6 mlrd so'mlik pul mablag'lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o'zlashtirishlar hamda 52,5 mlrd so'mlik noqonuniy xarajatlarga yo'l qo'yilgan. Shundan,

- xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarda 10,9 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash tizimidagi tashkilotlarda 17,3 mlrd so'm;
- madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda 2,4 mlrd so'm xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.



4- rasm. Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan 2018-2022 yillarda o'tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklar summasi (mlrd. so'm)

2019 yil davomida davlat moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazilgan byudjet tashkilotlarining 6616 tasida 142,6 mlrd so'm miqdorida moliyaviy xatoliklar, jumladan, 30,4 mlrd so'm miqdorida pul mablag'lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o'zlashtirishlar hamda 112,2 mlrd so'm miqdorida noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar aniqlangan. Shundan,

- xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarda 29,8 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash tizimidagi tashkilotlarda 13,8 mlrd so'm;
- madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda 7,8 mlrd so'm byudjet mablag'lari byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilmagan holda sarflanganligi aniqlangan.

2020 yilda byudjet tashkilotlarining 3861 tasida 246,0 mlrd so'm miqdoridagi moliyaviy xatoliklar aniqlangan va shundan 907 tasida 81,4 mlrd so'mlik pul mablag'lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o'zlashtirishlar, 3635 tasida 164,6 mlrd so'mlik noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'yilgan. Shundan,

- xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarda 96,6 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash tizimidagi tashkilotlarda 40 mlrd so'm;
- madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda 6,8 mlrd so'm miqdorida qonun buzilish holatlari aniqlangan.

2021 yilda byudjet tashkilotlarida o'tkazilgan moliyaviy nazorat tadbirlarining 6412 tasida 748,4 mlrd so'm xato va kamchiliklar shundan 122,8 mlrd. so'm miqdoridagi kamomad va o'zlashtirishlar, 625,6 mlrd so'm noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar ortiqcha to'lovlar boshqa maqsadsiz xarajatlar aniqlangan. Shundan,

- xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarda 96,3 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash tizimidagi tashkilotlarda 108,6 mlrd so'm;
- madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda 24,1 mlrd so'm miqdorda qonunbuzilish holatlari kuzatilgan.

2022 yilda vazirlik va idoralar tizimidagi byudjet tashkilotlarida o'tkazilgan moliyaviy nazorat tadbirlarining 5601 tasida 799,0 mlrd so'm miqdoridagi moliyaviy xatoliklar aniqlangan, shundan pul mablag'lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o'zlashtirishlar 1135

holatda 145,2 mlrd so'mni, noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar esa 4466 holatda 653,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Shundan,

- xalq ta'limi vazirligi tashkilotlarida 124,5 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash vazirligi tashkilotlarida 85 mlrd so'm;
- madaniyat vazirligi tashkilotlarda 34,6 mlrd so'm pul mablag'lari va moddiy boyliklarni kamomadi va o'zlashtirishlar hamda noqonuniy xarajat va ortiqcha to'lovlar aniqlangan.

Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili bir nechta tendensiyalarni tasdiqlaydi va turli vazirliklarda moliyaviy shaffoflik va nazoratga ta'sir qiluvchi omillar haqida taxminlarga olib keladi. O'rganilgan vazirliklarda moliyaviy xatolarning ko'payishining umumiy tendensiyasi ushbu tarmoqlarda moliyaviy nazorat va boshqaruvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ushbu sohalarida moliyaviy operatsiyalarning murakkabligi va hajmining ortib borayotganini aks ettirmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari davlat mablag'laridan samarali foydalanish va moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish uchun davlat tashkilotlarida moliyaviy nazorat va boshqaruv tizimini doimiy monitoring qilish va takomillashtirish muhimligini ta'kidlamogda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak so'nggi yillarda byudjet mablag'larini sarflashda qonun buzilishi holatlari ko'payib bormoqda. Bunga byudjet jarayonining murakkabligi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, samarali nazorat mexanizmlarining yo'qligi kabi turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Asl sabablarni aniqlash va tegishli profilaktika choralarini ishlab chiqish uchun ushbu qonunbuzarliklarni yanada chuqurroq tahlil qilish kerak.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida o'rganilgan vazirlik va idoralarda ichki audit nazorati tizimi yo'lga qo'yilganiga qaramay, byudjet mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish holatlari saqlanib qolmoqda. Ehtimol, mavjud tekshirish mexanizmlari yanada takomillashtirish yoki islohotga muhtojdir. Shuningdek, ichki auditorlar ishining samaradorligini baholash va ularning yondashuvlari va metodologiyalarida mumkin bo'lgan o'zgarishlar to'g'risida savol ko'tarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat moliyaviy nazorati sohasida olib borilgan islohotlarning ijobiy jihati shundaki, tekshiruvlar samaradorligi oshdi. Bu qoidabuzarliklar va kamchiliklarni yaxshiroq aniqlashga yordam beradigan yangi usullar, texnologiyalar va tahliliy vositalarning joriy etilishi bilan bog'liq. Yana bir muhim yutuq - byudjet mablag'larini qoplash darajasi oshdi. Bu noqonuniy harakatlar natijasida yetkazilgan zararni tiklash bo'yicha samaraliroq choralar ko'rilyotganidan dalolat beradi. Byudjetga mablag'larni maksimal darajada qaytarish uchun bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish lozim.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, quyidagi tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz:

- asl sabablarni aniqlash uchun qonun buzilishining tuzilishi va xarakterini batafsilroq tahlil qilish;
- ichki audit tizimini takomillashtirish, jumladan, metodologiyani takomillashtirish va xodimlarni o'qitish masalalarini ko'rib chiqish;
- huquqbuzarliklarni yanada samarali nazorat qilish va oldini olish uchun ilg'or texnologiyalar va tahliliy vositalardan foydalanish;
- noqonuniy va maqsadsiz sarflangan byudjet mablag'larini qaytarish mexanizmlarini kuchaytirishni davom ettirish.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

- Adams R. (1995) *Basis of audit. Ya.V.Sokolov (Ed.). Moskow: YUNITI (in Russ.)*.
- Arens A.A., Loebbecke, J.K. (2000) *Auditing: an integrated approach (8th ed.). London: Prentice-Hall International*.
- Konyng R. (2007) *Public Internal Financial Control (in Russ.)*.

- Miedviedkova N. (2016) Directions for improvement of state financial control in Ukraine. *Baltic Journal of Economic Studies*, 2 (2), p.105-110.
- Mozer J. (2015) The contribution of the WOFK in good governance and sustainable development through the promotion of transparency and accountability in public administration. *EUROSAI (EUROSAI)*, 21, 102-105 (in Russ.).
- Vysser A. (2015) XXI century and our future prospects. *EUROSAI (EUROSAI)*, 21, 92-94 (in Russ.).
- Анисифоров Т.С. (2020) Институт аудита в системе финансового права // *Финансовое право*. № 5. С. 3–6
- Артюхин Р.Е. (2020) Роль Федерального казначейства в обеспечении "прослеживаемости" хода реализации национальных проектов // *Финансовая безопасность*. № 26. С. 6-9.
- Григорьев А.В., Самсонов А.Г. (2021) Виды, формы и методы финансового контроля, их систематизация // *Журнал прикладных исследований*. № 6–5. С. 412–418.
- Зиновьева А.В. (2022) Расходы бюджета. *Международный научный журнал «Символ науки»* № 2-1
- Кильберг В. (2013) Ягона ғазна ҳисобварағи жорий этилган шароитда бюджет даромадларини маъмурлаш ва бюджетлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни тартиблаштириш масалалари. *Ж: Молиячи маълумотномаси*. №1. 33 б.
- Кур'янов В.В. (2019) Державний фінансовий контроль: сутність та синтез поглядів. *Економіка, фінанси., менеджмент: актуальні питання науки і практики*. №10. С.135
- Қурбонов Ҳ., Бижанова М. (2015) Давлат бюджети харажатларининг амалдаги ижтимоий-иқтисодий ислохотлардаги аҳамияти. *Biznes-daily.uz/ru*. Номер: №9 (93)
- Лукашов А.И. (2022) Новая парадигма бюджетного мониторинга // *Финансы*. № 6. С. 17–22.
- Лукашов А.И. (2023) Государственный финансовый контроль: современные вызовы и направления совершенствования // *Вопросы государственного и муниципального управления*. № 1. С. 20–38
- Сазонов А.С. (2010) Совершенствование кассового обслуживания исполнения бюджетов органами федерального казначейства. *Автореферат на соискание к.э.н.* С.17
- Хребтова Т.П. (2021) Государственный финансовый контроль: сущность, содержание, виды // *Вестник Московского государственного лингвистического университета. Образование и педагогические науки*. Т. 838, № 1. С. 279–286.
- Эшназаров Т., Мансуров М. (2015) Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. *Ўқув қўлланма*. Тошкент. 74 б.